

ARAB XALIFALIGI DAVRIDA MOVAROUNNAHRDA IJTIMOYIY- IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

ShDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti

Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Bektoshev G'iyosiddin Saxriddin o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada Arab xalifaligi davrida Movarounnahr hududida madaniy hayotning rivojlanishi tahlil qilinadi. Xususan, islom dini va arab madaniyatining kirib kelishi, ilm-fan, adabiyot va me'morchilik sohalaridagi yutuqlar, madrasalar va kutubxonalar faoliyati hamda mahalliy ilmiy an'analar bilan uyg'unlashuvi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu davrda yashagan mashhur olim va mutafakkirlarning ilmiy merosi tahlil qilinadi. Maqolada tarixiy manbalar va tadqiqotlar asosida Movarounnahrning madaniy taraqqiyotiga xalifalik siyosatining ta'siri o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Arab xalifaligi, Movarounnahr, madaniy hayot, islom, ilm-fan, adabiyot, me'morchilik, madrasalar, kutubxonalar, ilmiy meros.

Annotation: This article analyzes the development of cultural life in the Mavarannahr region during the era of the Arab Caliphate. In particular, it examines the introduction of Islam and Arab culture, achievements in science, literature, and architecture, the activities of madrasas and libraries, and their integration with local scientific traditions. Additionally, the scientific legacy of prominent scholars and thinkers of this period is explored. Based on historical sources and research, the article studies the impact of the Caliphate's policies on the cultural development of Mavarannahr.

Keywords: Arab Caliphate, Mavarannahr, cultural life, Islam, science, literature, architecture, madrasas, libraries, scientific legacy.

Аннотация: В данной статье анализируется развитие культурной жизни в регионе Мавераннахр в период Арабского халифата. В частности, рассматриваются проникновение ислама и арабской культуры, достижения в

науке, литературе и архитектуре, деятельность медресе и библиотек, а также их интеграция с местными научными традициями. Кроме того, изучается научное наследие выдающихся ученых и мыслителей этого периода. На основе исторических источников и исследований в статье исследуется влияние политики халифата на культурное развитие Мавераннахра.

Ключевые слова: Арабский халифат, Мавераннахр, культурная жизнь, ислам, наука, литература, архитектура, медресе, библиотеки, научное наследие.

Kirish: Movarounnahr hududi qadimdan turli sivilizatsiyalar chorrahasi bo'lib, boy madaniy merosi va ilm-fani bilan mashhur bo'lgan. VII asrning ikkinchi yarmida Arab xalifaligi tomonidan ushbu hududning zabt etilishi mintaqada yangi davrning boshlanishiga sabab bo'ldi. Islom dini tarqalishi bilan birga, arab tili ilm-fan va adabiyot tili sifatida keng qo'llanila boshladi. Arab xalifaligining hukmronligi Movarounnahrning madaniy taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Hududdagi mahalliy ilmiy va madaniy an'analar islom sivilizatsiyasi bilan uyg'unlashib, yangi ilmiy markazlarning shakllanishiga turtki berdi. Bu jarayonda madrasalar, kutubxonalar va ilmiy akademiyalar tashkil etilib, matematika, astronomiya, tibbiyot va falsafa kabi sohalarda yirik olimlar yetishib chiqdi. Ushbu maqolada Arab xalifaligi davrida Movarounnahrda madaniy hayotning rivojlanish jarayonlari, islom madaniyatining ta'siri, ilm-fan va me'morchilik sohalaridagi o'zgarishlar hamda ushbu davrda yetishib chiqqan mashhur mutafakkirlarning ilmiy merosi tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Maqolada Movarounnahrning arab xalifaligi tarkibida bo'lgan davrida madaniy hayot va islom sivilizatsiyasining rivojlanishini o'rganishda A. Sagdullayevning "O'zbekiston tarixi I-qism" asaridan, A. Asqarovning "O'zbekiston tarixi I-jild" kitobidan, B. Eshovning "O'zbekistonda davlatchilik va boshqaruvi tarixi" va "O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi" asarlaridan hamda A. Ziyoning "O'zbek davlatchiligi tarixi" kitobidan foydalanildi. Ushbu manbalar Movarounnahrda arab istilosi natijasida ro'y bergan o'zgarishlar, ilm-fan va din arboblarning faoliyati, mahalliy boshqaruv tizimi, islomiy huquqiy normalarning joriy etilishi va diniy ta'lim tizimi haqida qimmatli

ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqot davomida tarixiy-tahliliy, solishtirma tahlil, manbashunoslik va mintaqaviy yondashuv kabi ilmiy usullar qo'llanilib, Movarounnahrda islom ilmlarining yoyilishi, hadis va fiqh maktablarining tashkil topishi, mahalliy olimlarning islom tafakkuriga qo'shgan hissassi ilmiy asosda tahlil qilindi.

Muhokama va natijalar: VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Turon o'lkasidagi mahalliy turkiy, xorazmiy, sug'diy, buxtariy tillar va yozuvlar o'rnini mahkama ishlarida arab tili hamda arab yozuvi egallay boshladi. Arablar va islom dini ta'sirida mahalliy musulmonlar orasida islomiy ismlar odatiy tus ola boshladi. Shu bilan birga, o'zlari tug'ilgan yurtni nisba sifatida ko'rsatish ham e'tibordan chetda qolmadi. Arab istilosidan keyin Turonning ko'pchilik aholisi asta-sekin islomni qabul qila boshladi, ammo g'ayridinlardan jon boshiga olinadigan jizya solig'i yig'ib berishda davom etdi. Islom dini ta'limotlarini yoyish maqsadida Xuroson voliysi Ashras ibn Abdulla 728 yilda o'lkaga asli kelib chiqishi arab bo'lmagan xurosonlik Abu Saydo boshchiligida targ'ibot guruhini yubordi. Ashras ularga: "Dinga yangi kirganlardan jizya olinmaydi", deb va'da berdi. Abu Saydoning Turondagi targ'ibotlari muvaffaqiyat qozonib, odamlar birin-ketin islomni qabul qila boshladilar. Vaqt o'tgan sayin esa ajdodlarimiz islom ta'limoti asoslarini yaratish va rivojlantirishda butun musulmon olamida peshqadamga aylana bordilar. Chunonchi, VIII asrning ikkinchi yarmi – IX asrning boshlarida hadis ilmining ilk vakillari sifatida Abu Muqotil Hafs Samarqandiy, uning shogirdi Abu Bakr Ahmad, ikki o'g'li Salm ibn Hafs va Umar ibn Hafs nomlari tilga olinadi.[1] Ba'zi muhaddislar Samarqandga kelib, doimiy yashab qolganlar va shu shaharda o'z maktablariga asos solganlar. Jumladan, Abu Imron Muso Xo'jandiy adib, hakim, muhaddis sifatida shuhrat qozongan. IX–X asrlarda Ishtixon shahrida Ahmad ibn Hishom Navkadakiy hamda Dovud ibn Amr Rustug'faniy hadis maktablari, Niso shahrida Ahmad ibn Shuayb Nisoiy maktabi, Xo'jandda esa Yahyo ibn Fazl Xo'jandiy maktabi mavjud bo'lgan. IX asrda yashagan shoshlik muhaddislar Imom Buxoriy va Ja'far ibn Muhammad Foryobiyning ustozlari Abdulla ibn Abu Aroba Shoshiy, Abu Valid Tayolisiy, Abu Muso Horun Shoshiy, uning jiyani Abu Ali Fazlga

oid ma'lumotlar Toshkentda ham hadis ilmi keng rivoj topganidan dalolat beradi. Demak, Turon o'lkasi musulmon dunyosida hadischilikning paydo bo'lishi va rivojlanishida alohida o'rin egallagan. [2] Mazkur yo'nalishning eng obro'li va ishonchli vakili esa Imom Buxoriydir. Uning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn Mug'iyra ibn Bardazbax Ju'fiy Buxoriy bo'lib, 810 yil 20 iyulda Buxoro shahrida tug'ilgan. Ota-onasi o'z davrining ziyoli kishilaridan bo'lganlari uchun Muhammadga ham har tomonlama bilim berganlar. 825 yilda u onasi va akasi Ahmad bilan Makka va Madinani ziyorat qilib, olti yil Hijozda yashagan. O'z bilimini yanada oshirish maqsadida o'sha paytda ilm-fanning yirik markazlaridan hisoblangan Damashq, Qohira, Basra, Kufa, Bag'dod kabi shaharlardagi mashhur olimlardan hadis bilan bir qatorda fiqh ilmidan ham ta'lim olgan. [3] U yirik olimlar davrasida ilmiy bahslar va munozaralarda qatnashgan hamda ilm toliblariga dars bergan. Imom Buxoriy xorijdan qaytgach, o'z vatani Buxoroda ko'plab shogirdlar va ulamolarga hadis ilmidan saboq berish bilan mashg'ul bo'lgan. Umrining so'nggi yillarini esa Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog'ida o'z shogirdlari va qarindosh-urug'lari davrasida o'tkazgan. Ulug' alloma og'ir kasallikdan keyin 870 yil 1 sentyabr kuni 60 yoshida vafot etgan va shu yerda dafn qilingan. Imom Buxoriydan boy va qimmatli ilmiy meros qolgan. Uning "Sahihi Buxoriy" nomi bilan mashhur "Al-jome' as-sahih" asari islom ta'limotida Qur'ondan keyingi ikkinchi o'rinda turadigan muhim manba sanaladi. Imom Buxoriy hadischilikni ilmiy tizimga solgan ilk olimdir. Ungacha o'tgan muhaddislar eshitgan, bilgan barcha hadislarini tanlab o'tirmay, o'z to'plamlariga kiritaverganlar. Yurtdoshimiz esa turli roviylardan eshitgan hadislarini tabaqalarga bo'lib, ularning ishonchlilarini ajratib, alohida kitob yaratgan. Unga kiritilgan ishonchli hadislarining soni takrorlanadiganlari bilan birga 7275 ta bo'lib, takrorlanmaydigan holda esa 4000 hadisdan iboratdir. Keyingi zamon olimlari uning yo'lidan borib, shu yo'sinda hadislar to'plamlarini yaratganlar. "Al-jome' as-sahih"ga kiritilgan hadislar islom ta'limotiga oid umumiy qoidalarni aks ettiribgina qolmay, mehr-muhabbat, saxovat, ochiqko'ngillik, ota-ona, ayollar va kattalarga hurmat, yetim-esirlarga muruvvat, faqir-bechoralarga himmat, vatanga sadoqat, mehnatsevarlik va

halollikka da'vat etish kabi chin insoniy fazilatlar va namunali tartibotlar majmuasidir. Unda nima yaxshi, nima yomon, nimani qilish kerak, nimadan o'zini tiyish lozimligi haqida har bir inson uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega yo'l-yo'riqlar, pand-nasihat va o'gitlar aks ettirilgan.[4]

Turon o'lkasi islom sivilizatsiyasining shakllanishi va rivojlanishida muhim o'rin tutgan. VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, hududda arab tili va yozuvi keng tarqalib, mahalliy aholining islom dini va madaniyatiga kirib borishi jadallashdi. Islom dini ta'limotini yoyish maqsadida olib borilgan targ'ibot ishlari natijasida mintaqada islom ilmlari, ayniqsa, hadis va fiqh ilmi rivojlandi. Bu jarayonda buyuk allomalar— Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Mansur Moturidiy kabi olimlar o'z ilmiy merosi bilan ajralib turadilar. Ularning hadis ilmi va aqida masalalaridagi xizmatlari butun islom olamida e'tirof etilgan. Ayniqsa, Imom Buxoriyning "Al-jome' as-sahih" asari Qur'ondan keyin eng ishonchli manba sifatida tan olingan. Imom Termiziy esa hadis ilmining yetuk vakili bo'lib, uning "Sunan at-Termiziy" asari islom ilmiy merosining muhim qismini tashkil etadi. Abu Mansur Moturidiy esa hanafiy mazhabining aqidaviy asoslarini shakllantirib, sunniylik e'tiqodining mustahkamlanishiga katta hissa qo'shgan. Shunday qilib, Turon allomalari nafaqat o'z yurtida, balki butun musulmon olamida islomiy ilmlarning rivojlanishiga beqiyos ta'sir ko'rsatgan. Ularning boy ilmiy merosi bugungi kunda ham o'rganilmoqda va islom tafakkurining ajralmas qismi sifatida qadrlanadi.[5]

Xulosa qilib aytganda, Arab xalifaligi davrida Movarounnahrda yuz bergan siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar ushbu mintaqaning madaniy hayotiga ham chuqur ta'sir ko'rsatdi. Islom dini va arab yozuvining kirib kelishi mahalliy xalqlarning tafakkurida yangi yo'nalishlar ochib berdi. Ilm-fan, adabiyot, me'morchilik va san'at sohalarida yuksalish kuzatildi. Xorazm, Buxoro, Samarqand kabi markazlar yirik ilmiy-ma'rifiy maskanlarga aylana bordi. Shu davrda fiqh, hadis, tafsir, tibbiyot, matematika, falsafa kabi ko'plab sohalarida yetuk olimlar yetishib chiqdi.

Arablar tomonidan keltirilgan yangi diniy-ma'naviy qadriyatlar mahalliy an'analar bilan uyg'unlashib, boy va rang-barang madaniy muhitni shakllantirdi.

Ayniqsa, Buxoro va Samarqandda qurilgan masjidlar, madrasalar va kutubxonalar nafaqat diniy, balki dunyoviy ilmlarning ham rivojlanishiga xizmat qildi. Movarounnahr ahli islom sivilizatsiyasining muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylandi.

Umuman olganda, Arab xalifaligi davrida Movarounnahrda yuzaga kelgan madaniy hayot mintaqaning keyingi tarixiy taraqqiyotida muhim o‘rin egallagan va jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. A. Sagdullayev. O‘zbekiston tarixi I-qism. Toshkent, 2020. 320-bet.
2. A. Asqarov. O‘zbekiston tarixi I-jild. Toshkent, Ma’naviyat, 2022. 121-130betlar.
3. B.Eshov. O‘zbekistonda davlatchiligi va boshqaruvi tarixi. Toshkent .2012. 145-bet.
4. A. Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati toshkent-2001.91-bet.
5. B.Eshov. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi . 1-kitob . Toshkent. Yangi asr avlodi. 2019.255-bet.